UDK 336.22

Pulatov D.X., DSc, professor
Direktorning birinchi o‘rinbosari
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona ma’murchiligini takomillashtirish, fiskal tahlillar instituti

Abdiyev M.M.
Bosh mutaxassis
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona ma’murchiligini takomillashtirish, fiskal tahlillar institut

Shamsiyev F.E.
Bosh mutaxassis
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona ma’murchiligini takomillashtirish, fiskal tahlillar instituti

O‘ZBEKISTONDA UGLEROD SOLIG‘INI JORIY ETISH: XALQARO TAJRIBA, IQTISODIY ASOSLAR VA BOSQICHMA-BOSQICH YONDASHUV

Annotatsiya: *O‘zbekistonda 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot yaratish uchun havoga 1 kilogramm karbonat angidrid (CO_2) chiqariladi – bu jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan 2,6 baravar ko‘p. 2026-yildan esa Yevropa Ittifoqi import qilinadigan mahsulotlardagi uglerod uchun to‘lov undirish mexanizmini to‘liq ishga tushirdi. Maqolada shunday sharoitda mamlakatimizda uglerod solig‘ini joriy etish qanchalik asosli ekani va buni qanday tartibda qilish oqilona bo‘lishi o‘rganilgan. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, 1 tonna CO_2 uchun atigi 5 dollarlik soliq budjetga yiliga qariyb 0,7 milliard dollar keltiradi, benzin narxini esa litriga taxminan 140 so‘mga oshiradi, xolos. Mualliflar soliqni chiqindilarni hisobga olish tizimini yaratishdan boshlab, emissiya savdo tizimi bilan uyg‘un holda to‘rt bosqichda joriy etishni va tushgan mablag‘ni aholini qo‘llab-quvvatlash hamda “yashil” loyihalarga yo‘naltirishni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *soliq siyosati, ekologik soliqlar, uglerodga narx belgilash, uglerod solig‘i, emissiya savdo tizimi, CBAM.*

Annotation: *Uzbekistan emits 1 kilogram of carbon dioxide (CO_2) for every dollar of gross domestic product, which is 2.6 times the world average. Since 2026, the European Union has fully launched its Carbon Border Adjustment Mechanism, which charges for the carbon embedded in imported goods. This paper examines whether introducing a carbon tax in Uzbekistan is justified under these conditions and how it could be implemented sensibly. Our estimates show that a tax of only 5 US dollars per tonne of CO_2 would bring about 0.7 billion US dollars to the budget each year, while raising the price of gasoline by roughly 140 soums per litre. The authors propose a four-stage rollout that starts with an emissions accounting system and is aligned with an emissions trading scheme, with revenues directed to household support and green projects.*

Keywords: *tax policy, environmental taxes, carbon pricing, carbon tax, emissions trading system, CBAM.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda uglerodga narx belgilash iqlim siyosatining asosiy vositalaridan biriga aylandi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshida dunyoda 80 ta shunday vosita – uglerod solig‘i va emissiya savdo tizimlari ishlagan. Ular dunyodagi issiqxona gazlari chiqindilarining qariyb 28 foizini qamrab oladi va 2024-yilda davlat budjetlariga 100 milliard dollardan ortiq mablag‘ olib kelgan. O‘rtacha uglerod narxi ham shu davrda deyarli ikki baravar oshib, 2015-yildagi 10 dollardan biroz yuqori darajadan 2025-yilda 19 dollar atrofiga yetdi (World Bank, 2025).

O‘zbekiston uchun bu masala bir necha sababga ko‘ra dolzarb. Birinchisi – xalqaro majburiyatlar. Mamlakatimiz Parij kelishuvi doirasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindisini 2010-yil darajasidan 35 foizga kamaytirish majburiyatini olgan (Government of

the Republic of Uzbekistan, 2021). “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham shu yo‘nalishdagi aniq maqsadlar belgilangan: 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 ming megavattga, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini esa 54 foizga yetkazish (Institute of Legislation and Legal Policy, n.d.). Ikkinchisi – iqtisodiyotimiz hali ham ko‘p uglerod chiqaradi: 2024-yil hisobotiga ko‘ra, mamlakatda yiliga o‘rtacha 239 million tonna issiqxona gazlari (karbonat angidridga hisoblaganda) havoga chiqariladi.

Uchinchi sabab tashqi bozor bilan bog‘liq. Yevropa Ittifoqining chegara uglerod tuzatish mexanizmi 2026-yil 1-yanvardan to‘liq kuchga kirdi: endi Ittifoqqa mahsulot olib kiruvchilar undagi uglerod uchun haq to‘laydi, shu yilgi import uchun sertifikatlar esa 2027-yil fevralidan sotila boshlaydi (European Parliament & Council of the European Union, 2025).[1] Muhimi, mexanizm eksportchi mamlakatda allaqachon to‘langan uglerod narxini hisobga oladi. Boshqacha aytganda, mamlakatimizda uglerod narxi bo‘lmasa, bu to‘lovlar O‘zbekiston budjetiga emas, Yevropa budjetiga tushadi.

Uglerod solig‘ining nazariy asosi ingliz iqtisodchisi A. Pigou (1920) ilgari surgan g‘oyaga borib taqaladi: ishlab chiqaruvchi atrof-muhitga yetkazgan zararini to‘lamasa, bu zararni soliq orqali mahsulot narxiga qo‘shish kerak. M. Weitzman (1974) keyinroq narx (soliq) va miqdor (chiqindi uchun ruxsat miqdori) vositalaridan qaysi biri qanday sharoitda samaraliroq ekanini ko‘rsatib berdi – bugungi aralash tizimlar aynan shu xulosaga tayanadi. Stavka darajasi borasida fikrlar turlicha. Uglerod narxlari bo‘yicha yuqori darajali komissiya Parij kelishuvi maqsadlariga erishish uchun 2030-yilgacha 1 tonna CO_2 narxi 50–100 dollar bo‘lishi kerak deb hisoblaydi (High-Level Commission on Carbon Prices, 2017). Xalqaro valyuta jamg‘armasi mutaxassislari esa daromadi past rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 25 dollarlik eng kam narxni taklif qilgan (Parry va boshqalar, 2021).

[1]Mexanizm sement, cho‘yan va po‘lat, alyuminiy, mineral o‘g‘itlar, vodorod va elektr energiyasi importiga qo‘llaniladi. Yiliga 50 tonnagacha mahsulot import qiluvchilar undan ozod qilingan (European Parliament & Council of the European Union, 2025).

Soliq amalda ishlaydimi? Tadqiqotlar bu savolga ijobiy javob beradi. Shvetsiyada soliq transportdan chiqadigan chiqindilarni taxminan 11 foizga (Andersson, 2019), Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasida esa 5–15 foizga kamaytirgan (Murray & Rivers, 2015). 21 ta uglerod narxlash tizimini o‘rgangan umumlashtiruvchi tadqiqot ham, narxlar past bo‘lishiga qaramay, chiqindilar 5–21 foizga qisqarganini tasdiqladi (Döbbeling-Hildebrandt va boshqalar, 2024). Yevropa mamlakatlarida bu soliqlar iqtisodiy o‘sish va bandlikka sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmagan (Metcalf & Stock, 2023). Ammo jamiyat soliqni qabul qilishi uchun tushgan pul qanday ishlatilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega (Klenert va boshqalar, 2018) – buni Fransiyadagi “sariq jiletlar” noroziliklari yaqqol ko‘rsatdi (Douenne & Fabre, 2022). Agar tushum boshqa soliqlarni kamaytirishga yo‘naltirilsa, bir yo‘la ikki foyda – ham tozaroq havo, ham iqtisodiyotga yengilroq soliq yuki olish mumkin (Goulder, 1995).

O‘zbekiston sharoitida uglerod solig‘ining budjet va narxlarga ta’siri hozircha raqamlarda baholanmagan. Shu bois tadqiqotimizdan maqsad – soliqni joriy etishning iqtisodiy asoslarini aniqlash, uning mumkin bo‘lgan natijasini hisoblash va mamlakat sharoitiga mos joriy etish tartibini taklif qilishdir. Biz quyidagi taxmindan kelib chiqdik: uglerod solig‘i va emissiya savdo tizimi bosqichma-bosqich joriy etilsa, chiqindilarning atrof-muhitga zarari mahsulot narxida aks etadi va korxonalar energiyani tejaydigan, kam uglerod chiqaradigan texnologiyalarga o‘tishdan iqtisodiy manfaatdor bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilindi va turli soliq stavkalari uchun hisob-kitoblar bajarildi. Ma’lumotlar 2024-yilgi issiqxona gazlari hisobotidan, Jahon bankining 2025-yilgi ma’lumotlaridan va Milliy statistika qo‘mitasidan olindi. 2025-yilda yalpi ichki mahsulot 1 849,7 trillion so‘mni (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026), ya’ni 2025-yilgi o‘rtacha kurs bo‘yicha taxminan 145 milliard dollarni tashkil etgan.

Hisob-kitob quyidagi tartibda bajarildi. Avval soliq qaysi chiqindilarga solinishini aniqladik. Energetika va sanoat birgalikda chiqindilarning qariyb 79 foizini beradi, lekin dastlab kichik korxonalar va aholi bevosita soliqqa tortilmasligini hisobga olib, soliq umumiy chiqindilarning 60 foizini – yiliga taxminan 143 million tonnani qamraydi deb oldik. So‘ngra har bir stavka (1 tonna CO_2 uchun 2, 5, 10 va 20 dollar) ta’sirida bu hajm qanchaga kamayishini baholadik. Xorijiy tadqiqotlar natijalariga tayanib, ehtiyotkorlik bilan kamayishni mos ravishda 1; 2,5; 5 va 9 foiz deb oldik. Soliq solingandan keyin qolgan chiqindi hajmini stavkaga ko‘paytirib, budjetga tushadigan mablag‘ni topdik.

Yoqilg‘i narxiga ta’sirni aniqlash uchun bir litr yoqilg‘i yoki bir kub metr gaz yoqilganda qancha CO_2 chiqishini hisobladik va uni soliq stavkasiga ko‘paytirdik. Masalan, bir tonna AI-91 benzini yoqilganda 3,03 tonna CO_2 chiqadi, bu bir litr benzin uchun 2,24 kilogramm demakdir. Dizel va tabiiy gaz uchun xalqaro standart koeffitsiyentlar olindi.[2] Dollar kursi 12 500 so‘m deb olindi va soliq to‘liq xaridorga o‘tadi deb faraz qilindi.

Bu hisob-kitoblar soddalashtirilgan: ular narx oshganda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yuzaga keladigan zanjir ta’sirlarni hisobga olmaydi. Shuning uchun natijalarni aniq prognoz emas, balki qaror qabul qilish uchun mo‘ljal sifatida qabul qilish kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Chiqindilar tarkibi va uglerod sig‘imi

O'zbekistonning BMT Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasiga taqdim etgan Birinchi ikki yillik shaffoflik hisobotiga ko'ra, 2022-yilda issiqxona gazlari chiqindilarining 63,7 foizi energetika, 17,6 foizi qishloq xo'jaligi, 15 foizi sanoat jarayonlari va 5,2 foizi chiqindilar sohasiga to'g'ri kelgan (Agency of Hydrometeorological Service of the Republic of

[2]Dizel yoqilg‘isi uchun 1 litrga taxminan 2,65 kilogramm, tabiiy gaz uchun 1 kub metrga taxminan 1,9 kilogramm CO_2 olindi. Bu qiymatlar Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhining standart koeffitsiyentlari asosida hisoblangan (IPCC, 2006).

Uzbekistan, 2024). Demak, chiqindilarning katta qismi yoqilg'i yoqishdan kelib chiqadi. Bu soliqni undirishni ancha osonlashtiradi: uni minglab iste'molchidan emas, soni uncha ko'p bo'lmagan yoqilg'i ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi korxonalardan olish mumkin.

Jahon bankining 2025-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot yaratish uchun 1 kilogramm CO_2 chiqariladi – bu jahon o‘rtachasidan 2,6 baravar ko‘p. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha biz Qozog‘iston bilan bir darajada va Rossiyadan biroz yaxshiroq holatdamiz, lekin Gruziyadan ikki baravar, Yevropa Ittifoqidan esa olti baravardan ko‘proq ortda qolmoqdamiz (1-rasm). Bu, bir tomondan, muammo bo‘lsa, ikkinchi tomondan, energiya samaradorligini oshirish uchun katta zaxira borligini bildiradi.



1-rasm. 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot uchun chiqariladigan CO_2, kilogramm

Manba: Jahon banki 2025-yil ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Xalqaro tajriba

Uglerod solig‘ining o‘ziga xosligi shundaki, soliq mahsulot hajmiga emas, balki uni ishlab chiqarish yoki yoqishda havoga chiqadigan CO_2 miqdoriga solinadi. Masalan, 1 tonna AI-91 benzini yoqilganda 3,03 tonna CO_2 chiqadi va soliq aynan shu tonnalarning har biri uchun hisoblanadi. Benzin, dizel, tabiiy gaz, ko‘mir, sement, mineral o‘g‘itlar ana shu tartibda soliqqa tortilishi mumkin.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, hozir 37 ta mamlakatda uglerod solig‘i amal qiladi va 2025-yilda u budjetlarga jami 27 milliard dollar keltirgan. 1 tonna

CO_2 uchun o‘rtacha stavka 19,5 dollarni tashkil etadi, lekin mamlakatlar o‘rtasidagi farq juda katta – Shvetsiyadagi 155 dollardan Ukrainadagi 1 dollargacha (1-jadval).

1-jadval

Ayrim mamlakatlarda uglerod solig‘i

Mamlakat	Joriy etilgan yil	Stavka (1 tonna CO_2 uchun, dollar)	Xususiyatlari
Shvetsiya	1991	155	Daromad solig‘ini kamaytirish bilan birga joriy etilgan (Andersson, 2019)
Fransiya	2014	52	2018-yilda stavkani oshirish ijtimoiy noroziliklar sababli to‘xtatilgan (Douenne & Fabre, 2022)
Latviya	2004	17,4	Asosan Yevropa emissiya savdo tizimiga kirmagan korxonalarga qo‘llaniladi (World Bank, 2025)
Yaponiya	2012	1,8	Butun tushum energiyani tejash va qayta tiklanuvchi energiyaga sarflanadi (Ministry of the Environment, Japan, n.d.)
Ukraina	2011	1	Stavka past bo‘lgani uchun rag‘batlantiruvchi ta’siri cheklangan (World Bank, 2025)

Manba: stavkalar – Jahon banki ma’lumotlari; xususiyatlar – ko‘rsatilgan manbalar asosida tuzilgan.

Jadvaldan ikki muhim saboq chiqadi. Fransiyada stavkani aholiga tushuntirmasdan va zararni qoplamasdan tez oshirishga urinish ommaviy noroziliklarga sabab bo‘ldi va hukumat rejadan voz kechishga majbur bo‘ldi. Yaponiya esa, aksincha, juda past stavka bilan ham energiyani tejash loyihalari uchun barqaror moliya manbasi yaratish mumkinligini ko‘rsatdi. Umuman, ko‘p mamlakatlar bu mablag‘ni qayta tiklanuvchi energiya, “yashil” transport va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga sarflaydi. Mintaqamizdan misol sifatida Qozog‘istonni keltirish mumkin: u 2013-yildan beri emissiya savdo tizimini qo‘llab keladi va bu tizim yiliga 20 ming tonnadan ortiq CO_2 chiqaradigan korxonalarni qamrab oladi (ICAP, n.d.).

Soliqning budjet, chiqindilar va narxlarga ta’siri

Hisob-kitoblarimiz natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Hatto 5 dollarlik stavkada ham soliq budjetga yiliga qariyb 0,7 milliard dollar (yalpi ichki

mahsulotning 0,48 foizi) olib keladi va chiqindilarni 3,6 million tonnaga kamaytiradi. Stavka jahon o‘rtachasiga yaqin – 20 dollarga yetkazilsa, tushum 2,6 milliard dollarga, chiqindilarning kamayishi esa 12,9 million tonnaga (umumiy hajmning 5,4 foizi) yetadi.

Aholi uchun eng sezilarli ta’sir yoqilg‘i narxida bo‘ladi. 5 dollarlik stavkada bir litr AI-91 benzini taxminan 140 so‘mga, bir kub metr tabiiy gaz 119 so‘mga qimmatlashadi. 20 dollarda bu farq mos ravishda 560 va 475 so‘mga yetadi. Bundan tashqari, elektr energiyasi, sement va o‘g‘itlar narxi ham bilvosita oshadi.

2-jadval

Uglerod solig‘ining turli stavkalardagi ta’siri

Stavka (1 tonna CO_2 uchun, dollar)	Chiqindilar kamayishi, million tonna (foiz)	Budjet tushumi, million dollar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	Benzin (AI-91) narxi oshishi, so‘m/litr	Dizel narxi oshishi, so‘m/litr	Tabiiy gaz narxi oshishi, so‘m/kub metr
2	1,4 (1,0)	284	0,20	56	66	48
5	3,6 (2,5)	699	0,48	140	166	119
10	7,2 (5,0)	1 362	0,94	280	331	238
20	12,9 (9,0)	2 610	1,80	560	662	475

Manba: mualliflar hisob-kitoblari.

Misol tariqasida 5 dollarlik stavka bo‘yicha hisob-kitobni ko‘rsatamiz. Avvalo chiqindining kamayishi topiladi: qamrov (143,4 mln t) chiqindi kamayishi foiziga ko‘paytiriladi, ya’ni 143,4 × 2,5% = 3,6 mln t. Soliqqa tortiladigan qoldiq hajm 143,4 − 3,6 = 139,8 mln t bo‘ladi. Budjet tushumi bu qoldiq hajmni stavkaga ko‘paytirish orqali olinadi: 139,8 × 5 = 699 mln dollar. Uning YaIMga (145 mlrd dollar) nisbati esa 699 / 145 000 × 100 = 0,48% ni tashkil etadi. Jadvaldagi boshqa qatorlar ham xuddi shu tartibda hisoblangan.

Natijalar muhokamasi

Olingan natijalar taxminimizni qisman tasdiqlaydi. Past stavkada ham soliq budjet uchun sezilarli mablag‘ beradi va chiqindilarni kamaytiradi. Bosqichma-bosqich joriy etilgan soliq va emissiya savdo tizimi korxonalarni energiyani tejaydigan texnologiyalarga o‘tishga undaydi, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytiradi va budjet uchun qo‘shimcha daromad manbasini yaratadi.

Biroq 1–9 foizlik qisqarish Parij kelishuvi bo‘yicha olingan 35 foizlik majburiyatni bajarish uchun yetarli emas. Demak, uglerod solig‘i qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi dasturlarining o‘rnini bosa olmaydi, u faqat ularni to‘ldiradi. Qolaversa, 2–10 dollarlik stavkalar jahon o‘rtachasidan (19,5 dollar) ham, Xalqaro valyuta jamg‘armasi taklif qilgan 25 dollarlik eng kam narxdan ham ancha past. Shuning uchun stavkani oldindan e’lon qilingan jadval bo‘yicha asta-sekin oshirib borish ma’qul.

Soliq yaxshimi yoki emissiya savdo tizimi? Fikrimizcha, bu savolni “yo u, yo bu” tarzida qo‘yish to‘g‘ri emas. Soliq uglerod narxini oldindan ma’lum qiladi va yoqilg‘iga mavjud aksiz tizimi orqali oson undiriladi. Emissiya savdo tizimida esa davlat chiqindilarning umumiy chegarasini belgilaydi, korxonalar ruxsatnomalarni o‘zaro sotib olib-sotadi, natijada chiqindi qayerda arzonroq qisqartirilsa, o‘sha yerda qisqaradi. Shu sababli yoqilg‘i va kichik chiqaruvchilar uchun soliq, elektr energetikasi, sement, metallurgiya va o‘g‘it ishlab chiqarish kabi yirik korxonalar uchun esa emissiya savdo tizimi qo‘llaniladigan aralash model maqbul ko‘rinadi. Bu tarmoqlar Yevropa Ittifoqining chegara mexanizmi qamroviga ham kiradi, shuning uchun mamlakatimizdagi uglerod narxi eksportchilarning Yevropada to‘laydigan summasini kamaytiradi (European Parliament & Council of the European Union, 2023).

Albatta, xavflar ham bor. Soliq mahsulot tannarxini oshiradi, energiyani ko‘p sarflaydigan tarmoqlarning raqobatbardoshligiga bosim tushiradi, qo‘shimcha xarajatning bir qismi esa narxlar orqali xaridor zimmasiga o‘tadi. Bu xavflarni qanday yumshatish mumkinligi keyingi bo‘limdagi takliflarda ko‘rsatilgan.

TAKLIFLAR

Birinchi. Soliq va emissiya savdo tizimini birdaniga emas, to‘rt bosqichda joriy etish.

Birinchi bosqich (2027-yil) tayyorgarlikka bag‘ishlanadi va bu davrda soliq undirilmaydi. Korxonalar chiqindilarini o‘lchash, hisobot berish va

mustaqil tekshirish tizimi yaratiladi, yirik chiqaruvchilar ro‘yxati tuziladi, zarur qonunchilik bazasi tayyorlanadi. Yiliga 10 ming tonnadan ortiq CO_2 chiqaradigan korxonalar hisobot bera boshlaydi. Bunday hisob tizimisiz na soliq, na emissiya savdo tizimi to‘g‘ri ishlay olmaydi (Timilsina, 2022).

Ikkinchi bosqichda (2028–2029-yillar) yoqilg‘iga 1 tonna CO_2 uchun 2–5 dollar miqdorida soliq joriy etiladi. U energetika korxonalari va yiliga 20 ming tonnadan ortiq CO_2 chiqaradigan sanoat korxonalariga qo‘llaniladi. Shu bilan bir vaqtda aholining kam ta’minlangan qatlamlariga qo‘shimcha xarajatni qoplash tizimi ishga tushiriladi.

Uchinchi bosqichda (2030–2032-yillar) stavka 5–10 dollargacha oshiriladi va soliq umumiy chiqindilarning 60 foizigacha qamrab oladi. Energetikada emissiya savdo tizimi sinov tariqasida ishga tushiriladi, Yevropa Ittifoqi chegara mexanizmiga kiradigan tarmoqlarga alohida e’tibor qaratiladi.

To‘rtinchi bosqichda (2033-yildan) emissiya savdo tizimi to‘liq quvvat bilan ishlaydi, stavka 15–25 dollarga yetkaziladi va milliy tizim xalqaro uglerod bozorlariga ulanadi. Qamrov chegaralarini (10 va 20 ming tonna) belgilashda Qozog‘iston tajribasiga tayanildi.

Ikkinchi. Stavkalarning o‘sish jadvalini kamida uch yil oldin qonun bilan belgilash. Korxona investitsiya qilishdan oldin kelgusi yillarda uglerod qancha turishini bilishi kerak.

Uchinchi. Vakolatlarni aniq taqsimlash. Chiqindilarni hisobga olish, soliqni undirish va emissiya savdo tizimi ro‘yxatini yuritish vazifalari ekologiya sohasidagi vakolatli organ, Soliq qo‘mitasi va gidrometeorologiya xizmati o‘rtasida aniq bo‘linishi, ular o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi esa elektron shaklda yo‘lga qo‘yilishi lozim.

To‘rtinchi. Tushgan mablag‘dan shaffof foydalanish. Taxminan 30 foizini kam ta’minlangan oilalarga manzilli yordam sifatida, 40 foizini qayta tiklanuvchi energiya, energiyani tejash va “yashil” transport loyihalarini moliyalashtiradigan maxsus jamg‘armaga, qolgan 30 foizini esa ish haqiga solinadigan soliq yukini kamaytirishga yo‘naltirishni taklif qilamiz. Bu nisbatlar

taxminiy bo‘lib, ularni aniqlashtirish uchun oilalar daromadi bo‘yicha qo‘shimcha tahlil kerak. Eng muhimi – mablag‘ qayerga sarflangani har yili ochiq e’lon qilinishi lozim.

Beshinchi. Raqobatbardoshlikni himoya qilish. Eksportga ishlaydigan va energiyani ko‘p sarflaydigan korxonalarga to‘langan soliqning bir qismini ularning ishlab chiqarish hajmiga qarab vaqtincha qaytarish tartibi kerak. Bu ishlab chiqarishning uglerod solig‘i yo‘q mamlakatlarga ko‘chib ketishining oldini oladi. Soliq islohoti energiya tariflari islohoti bilan ham muvofiqlashtirilishi zarur.

Oltinchi. Imtiyozlarga muddat qo‘yish. Uglerod solig‘i bo‘yicha har qanday imtiyoz 3–5 yillik muddatga berilishi kerak. Muddat tugashidan oldin imtiyozning budjet, iqtisodiyot va ekologiyaga ta’siri majburiy baholanadi. Natija ijobiy bo‘lsagina imtiyoz uzaytiriladi, aks holda u avtomatik bekor bo‘ladi, baholash natijalari esa ochiq e’lon qilinadi. Bu tartib imtiyozni shunchaki rasman uzaytirish vositasiga aylanib qolmasligi uchun yagona baholash uslubi, aniq mezonlar va mustaqil baholovchi zarur.

XULOSA

Tadqiqot O‘zbekistonda uglerod solig‘ini joriy etish uchun yetarli iqtisodiy asos borligini ko‘rsatdi. Chiqindilarning qariyb uchdan ikki qismi energetikaga to‘g‘ri keladi, iqtisodiyotning uglerod sig‘imi esa jahon o‘rtachasidan 2,6 baravar yuqori. Bunday sharoitda soliq ham chiqindilarni kamaytirish, ham undirish jihatidan samarali ishlaydi. Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 1 tonna CO_2 uchun 2–20 dollarlik stavkada soliq yiliga 0,28–2,61 milliard dollar qo‘shimcha daromad keltiradi va chiqindilarni 1,4–12,9 million tonnaga kamaytiradi. Shu bilan birga, Parij kelishuvi bo‘yicha majburiyatlarni faqat soliq bilan bajarib bo‘lmaydi: u qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi siyosati bilan birga qo‘llanishi kerak.

Xalqaro tajriba bosqichma-bosqich yondashuv to‘g‘ri ekanini tasdiqlaydi. Ya’ni, dastlab chiqindilarni hisobga olish tizimi, keyin past stavkali sinov

solig‘i, so‘ngra emissiya savdo tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oldindan e’lon qilingan stavkalar jadvali va tushgan mablag‘dan shaffof foydalanish soliqqa jamiyat ishonchini ta’minlaydi. Yevropa Ittifoqi chegara mexanizmining ishga tushishi esa bu qarorni uzoq kechiktirishga imkon bermaydi. Keyingi tadqiqotlarda soliqning alohida tarmoqlar va turli daromadli oilalarga ta’sirini chuqurroq baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Andersson, J. J. (2019). Carbon taxes and CO_2 emissions: Sweden as a case study. *American Economic Journal: Economic Policy, 11*(4), 1–30. DOI: 10.1257/pol.20170144

2. Döbbeling-Hildebrandt, N., Miersch, K., Khanna, T. M., Bachelet, M., Bruns, S. B., Callaghan, M., Edenhofer, O., Flachsland, C., Forster, P. M., Kalkuhl, M., Koch, N., Lamb, W. F., Ohlendorf, N., Steckel, J. C., & Minx, J. C. (2024). Systematic review and meta-analysis of ex-post evaluations on the effectiveness of carbon pricing. *Nature Communications, 15*, Article 4147. DOI: 10.1038/s41467-024-48512-w

3. Douenne, T., & Fabre, A. (2022). Yellow vests, pessimistic beliefs, and carbon tax aversion. *American Economic Journal: Economic Policy, 14*(1), 81–110. DOI: 10.1257/pol.20200092

4. European Parliament & Council of the European Union. (2023). Regulation (EU) 2023/956 of 10 May 2023 establishing a carbon border adjustment mechanism. *Official Journal of the European Union, L 130*, 52–104. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2023/956/oj

5. European Parliament & Council of the European Union. (2025). Regulation (EU) 2025/2083 amending Regulation (EU) 2023/956 as regards simplifying and strengthening the carbon border adjustment mechanism. *Official Journal of the European Union*. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2025/2083/oj

6. Goulder, L. H. (1995). Environmental taxation and the double dividend: A reader's guide. *International Tax and Public Finance, 2*(2), 157–183. DOI: 10.1007/BF00877495

7. Government of the Republic of Uzbekistan. (2021). *Updated nationally determined contribution of the Republic of Uzbekistan*. UNFCCC. https://unfccc.int/sites/default/files/NDC/2022-06/Uzbekistan_Updated%20NDC_2021_EN.pdf

8. High-Level Commission on Carbon Prices. (2017). *Report of the High-Level Commission on Carbon Prices*. World Bank. https://www.carbonpricingleadership.org/report-of-the-highlevel-commission-on-carbon-prices

9. ICAP. (n.d.). *Kazakhstan Emissions Trading System*. International Carbon Action Partnership. Retrieved September 21, 2026, from https://icapcarbonaction.com/en/ets/kazakhstan-emissions-trading-system

10. Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Uzbekistan–2030: A roadmap for sustainable growth and prosperity*. Retrieved September 21, 2026, from https://eng.illp.uz/uzbekistan-2030-a-roadmap-for-sustainable-growth-and-prosperity/

11. IPCC. (2006). *2006 IPCC guidelines for national greenhouse gas inventories: Vol. 2. Energy*. Institute for Global Environmental Strategies. https://www.ipcc-nggip.iges.or.jp/public/2006gl/vol2.html

12. Klenert, D., Mattauch, L., Combet, E., Edenhofer, O., Hepburn, C., Rafaty, R., & Stern, N. (2018). Making carbon pricing work for citizens. *Nature Climate Change, 8*(8), 669–677. DOI: 10.1038/s41558-018-0201-2

13. Metcalf, G. E., & Stock, J. H. (2023). The macroeconomic impact of Europe's carbon taxes. *American Economic Journal: Macroeconomics, 15*(3), 265–286. DOI: 10.1257/mac.20210052

14. Ministry of the Environment, Japan. (n.d.). *Details on the carbon tax (Tax for Climate Change Mitigation)*. Retrieved September 21, 2026, from https://www.env.go.jp/content/900453366.pdf

15. Murray, B., & Rivers, N. (2015). British Columbia's revenue-neutral carbon tax: A review of the latest "grand experiment" in environmental policy. *Energy Policy, 86*, 674–683. DOI: 10.1016/j.enpol.2015.08.011

16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). *O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 35 yilda 478 foizga oshgan*. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/67457-zbekiston-yalpi-ichki-ma-suloti-35-jilda-478-foizga-oshgan-4

17. Parry, I., Black, S., & Roaf, J. (2021). *Proposal for an international carbon price floor among large emitters* (IMF Staff Climate Note 2021/001). International Monetary Fund. DOI: 10.5089/9781513583204.066

18. Pigou, A. C. (1920). *The economics of welfare*. Macmillan.

19. Timilsina, G. R. (2022). Carbon taxes. *Journal of Economic Literature, 60*(4), 1456–1502. DOI: 10.1257/jel.20211560

20. Weitzman, M. L. (1974). Prices vs. quantities. *The Review of Economic Studies, 41*(4), 477–491. DOI: 10.2307/2296698

21. World Bank. (2025). *State and trends of carbon pricing 2025*. World Bank. DOI: 10.1596/978-1-4648-2255-1. https://hdl.handle.net/10986/43277